

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan
“Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da Respublika davlat dasturida
belgilangan vazifalarning ijrosi to‘g‘risida**

MA’LUMOT
(2025-yil 1-yarim yillikda)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-soni Farmoni bilan tasdiqlangan Respublika davlat dasturida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan 4 ta band o‘rin olgan. Unga ko‘ra, 2025-yilning o‘tgan 1-yarim yilligida:

1. Respublika davlat dasturining 4-ilovasi 6-bandida ko‘zda tutilgan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJda Mahalliylashtirish va import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar turlarini ko‘paytirish” yo‘nalishida shu yilning o‘tgan yarim yilligida kon texnikasi va texnologik uskunalar uchun import ehtiyyot va butlovchi qismlarga bo‘lgan talablar o‘rganilib, ularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish reja-jadvali ishlab chiqildi. Unga asosan, joriy yil yanvar-iyun oylarida 754,7 mlrd. so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarildi, belgilangan rejaga nisbatan 101,0 foizga (o‘tgan yilga nisbatan 160,0 foiz) bajarildi. Amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida har oyda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligiga axborot kiritib borilmoqda.

2. Respublika davlat dasturining 4-ilovasi 8-bandida ko‘zda tutilgan “Yirik korxonalar tomonidan ESG hisobotlarini yuritish amaliyotini yo‘lga qo‘yish hamda jamoatchilikka oshkor qilish” yo‘nalishida shu yilning o‘tgan 1-yarim yilligida NKMK” AJga “Sustainable Fitch” xalqaro reyting agentligi tomonidan ilk bor korporativ ESG-reytingi berildi. Bu, O‘zbekiston tog‘-kon sanoatida kombinat ESG-reytingini olgan birinchi kompaniya bo‘ldi. Bunda, kombinatning ekologiya yo‘nalishi ham xalqaro standartlarga muvofiqligi har tomonlama baholangan.

Shuningdek, shu yilning aprel oyida konsultant xizmatlari jalb etilishi uchun tegishli Texnik topshiriq tayyorlandi. (Hozirgi kunda xaridlar boshlanishi uchun kelishilmoqda). Yaqin kunlarda Barqaror rivojlanish (ESG) bo‘yicha hisobot tayyorlanib, korporativ saytda yoritish rejorashtirilgan.

3. Respublika davlat dasturining 4-ilovasi 12-bandida ko‘zda tutilgan “Muruntov” konini o‘zlashtirishning investitsiya loyihasining navbatdagi bosqichlarini amalga oshirish” yo‘nalishida shu yilning o‘tgan 1-yarim yilligida mazkur loyihamning texnik-iqtisodiy asosi (TIA) ishlab chiqildi va ko‘rib chiqish hamda kelishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi Kon-metallurgiya va investitsiya loyihalari qo‘shma ilmiy-texnik Kengashiga joriy yilning 27-fevral sanasida 147/01-02-2/2375-soni xati bilan kiritildi.

Ma’lumot o‘rnida aytish kerakki, joriy yilning yanvar-iyun oylarida 7,6 mln. AQSh dollari miqdoridagi kapital mablag‘lar o‘zlashtirildi. Shundan, qurilish-montaj ishlariga 2,52 mln. AQSh dollari va asbob-uskunalar xarid qilish uchun 5,08 mln. AQSh dollari miqdorida mablag‘lar sarflandi.

4. Respublika davlat dasturining 16-ilovasi 28-bandida ko‘zda tutilgan “Atrof-muhitni muhofaza qilish va issiqxona gazlari tashlanmalarini kamaytirishga qaratilgan strategiyani amalga oshirish” yo‘nalishida atmosfera havosini ustuvor ifloslantirish manbalaridan namunalar olish va tahlil qilish bo‘yicha **2 ta** avtomatik stansiyalarini o‘rnatish hamda 6

ta zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalarini o‘rnatish va eskilarni almashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Avtomatik stansiyalarni xarid qilish uchun Davlat ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazi bilan texnik topshiriq ishlab chiqishi uchun shartnoma imzolandi. Navoiy mashinasozlik zavodining quymachilik sexi 49-manbasiga avtomatik stansiya xarid qilindi. Hozirda ishga tushirish va montaj ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, iqlim strategiyasini ishlab chiqish uchun xaridlar natijasida “Bezopasnost’ i kontrol” kompaniyasi “Sapeco” kompaniyasi bilan konsorsiumda jalb qilindi (Shartnoma 2025-yil 3-martdan imzolandi). Loyiha bo‘yicha ishlar boshlanib xalqaro standartlar asosida issiqxona gazlarining tashlanmalarini hisoblash metodologiyasi ishlab chiqilmoqda.

2023-2024-yillar uchun 1 va 2 qamrov bo‘yicha issiqxona gazlar tashlanmalarining dastlabki hisob-kitobi shakllantirildi, iqlim xavflari, shuningdek, xavf omillarini amalga oshirishning ehtimoliy oqibatlari bo‘yicha xatlovdan o‘tkazilmoqda. Ishlab chiqarish natijasida hosil bo‘ladigan issiqxona gazlari tashlanmalarini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni hisobga olgan holda, “NKMK” AJning dekarbonizatsiya strategiyasi joriy yilning oktabr oyiga qadar ishlab chiqiladi.

Hozirgi kunda “NKMK” AJning iqlim strategiyasini dastlabki versiyasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Joriy yil oktabr oyiga qadar iqlim strategiyasining yakuniy versiyasi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ
Atrof-muhit muhofazasi bo‘limi.**